

Date: 15th January-2026

EGRA XALQARO BAHOLASH DASTURINING NAZARIY-ASOSIY TAHLILI VA TATBIQI

Jumayeva Nigora Zayniddin qizi
Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada EGRA (Early Grade Reading Assessment) xalqaro baholash dasturining nazariy-metodologik asoslari, psixometrik xususiyatlari hamda erta bosqichdagi o'qish savodxonligini baholashdagi ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda EGRA dasturining asosiy komponentlari — fonematik anglash, tovush-harf mosligi, o'qish ravonligi, so'z boyligi va matnni anglash ko'nikmalarini baholash mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, EGRA dasturining xalqaro tajribadagi qo'llanilishi va O'zbekiston ta'lim tizimiga integratsiya qilinishi jarayoni ilmiy adabiyotlar tahlili asosida o'rganilgan. Maqolada EGRA va EGMA baholashlari orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining individual ehtiyojlarini aniqlash, pedagogik xatolarni diagnostika qilish va ta'lim sifatini oshirish imkoniyatlari asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari EGRA dasturining ta'lim sifatini monitoring qilish va strategik rejalashtirishdagi muhim vosita ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: EGRA, EGMA, boshlang'ich ta'lim, o'qish savodxonligi, erta baholash, xalqaro baholash dasturlari, ta'lim sifati, diagnostika, fonematik anglash, o'qish ravonligi.

EGRA (Early Grade Reading Assessment) — bu boshlang'ich sinf o'quvchilarning o'qish savodxonligi ko'nikmalarini o'lchashga qaratilgan standartlashtirilgan xalqaro baholash vositasi bo'lib, asosan 1–3-sinf o'quvchilarda og'zaki tahlil asosida fundamental o'qish ko'nikmalarini aniqlaydi. EGRA dasturi og'zaki baholash orqali fonematik anglash, tovush-harf uyg'unligi, so'z boyligi, o'qish tezligi va matnni anglash kabi komponentlarni o'lchaydi. O'zbekiston ham EGRA integratsiyasini boshlagan mamlakatlardan bo'lib, bu dastur ta'lim sifati monitoringi va diagnostikasi uchun muhim vositaga aylandi [1].

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi USAID bilan hamkorlikda birinchi marta milliy EGRA va EGMA tadbirlarini amalga oshirdi. Ushbu dasturlar doirasida o'quvchilarning o'qish va matematik ko'nikmalari baholandi, pedagogik xatolar aniqlandi hamda ularni bartaraf etish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqildi, boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan strategik yondashuvlar belgilandi. O'zbek olimlari tomonidan EGRA metodologiyasiga yaqin yondashuvlar asosan boshlang'ich ta'lim metodikasi, lingvistika va pedagogik psixologiya doirasida o'rganilgan. Hozirgi kunga qadar olib borilgan qator tadqiqot va ilmiy izlanishlarni tahlil qiladigan bo'lsak, mazkur yo'nalishda muhim natijalar mavjudligini ko'rish mumkin [2].

EGRA dasturi o'quvchilarning erta bosqichdagi o'qish ko'nikmalarini tez va samarali aniqlash imkonini beradi. EGRA ni ishlab chiqish nazariyasi o'rta hisoblanadigan «o'qishga kirish» va «o'qishni tasdiqlash hamda ravon o'qish» bosqichlariga asoslanadi. Bu baholash modelining psixometrik infratuzilmasi, shu jumladan o'lchovning ishonchliligi hamda subtestlararo bog'liqlik nazariyasi ham o'rganilgan [3].



Date: 15th January-2026



EGRA baholashlari, o'quvchilarning o'qish darajasini aniqlashga qaratilgan kompleks yondashuvni o'z ichiga oladi. Ushbu baholashlar orqali o'quvchilarning o'qish malakalari, tushunish darajasi va matn bilan ishlash qobiliyati baholanadi. Egma baholashlari esa o'quvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlashga va ularga asoslangan pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqishga qaratilgan [4].

EGRA diagnostikasi faqat matematik yoki qog'oz-qalam natijalari bilan chegaralanmaydi, balki o'qish jarayonida o'quvchining tildagi repertuarini, fonematik va semantik tushunishni ham baholaydi. Bu yondashuv o'qish bilan bog'liq muammolarni erta aniqlashga ham yordam beradi [5]. Ushbu maqolaning maqsadi — EGRA dasturining xalqaro ta'lim tizimidagi o'rni, uning tahliliy adabiyotlar bilan qo'llanilishi hamda O'zbekiston sharoitida tatbiq jarayoni bo'yicha ilmiy asoslarni yoritishdan iborat. Vazifalar quyidagilar:

1. EGRA metodologiyasining nazariy ta'rifini berish.
2. Dasturiy vositalar va komponentlarining ilmiy asoslarini tahlil etish.
3. EGRA kholati bo'yicha ilmiy adabiyotlar va ularni amaliy tadqiqotlar bilan solishtirish.

Ushbu maqola adabiyotlar tahlili (literature review) metodiga asoslangan. Tadqiqot jarayonida EGRA bo'yicha xalqaro nashrlar, ilmiy maqolalar va amaliy hisobotlar o'rganildi. Shuningdek, maktab bosqichidagi o'quvchilarda EGRAning diagnostik ko'rsatkichlari ham ilmiy jurnallardan olingan namunalar orqali tahlil qilindi [6]. EGRA dasturi xalqaro miqyosda keng qo'llaniladi — 50 dan ortiq mamlakatlarda, 70 dan ortiq tillarda boshlabki o'qish ko'nikmalarini baholashda qo'llangan. EGRA natijalari ta'lim tizimlaridagi zaif tomonlarni aniqlash va tegishli siyosat choralari qo'llashda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi [7].

2025 yil nashr etilgan tadqiqotga ko'ra, o'qituvchilarning EGRAni qo'llash bo'yicha mavqei ijobiy bo'lib, lekin samarali tatbiq uchun qo'shimcha treninglar, o'quv materiallari va doimiy professional rivojlanish talab etiladi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, EGRA dasturi erta bosqichdagi o'qish savodxonligini tizimli baholash uchun mustahkam ilmiy asosga ega bo'lgan xalqaro baholash instrumentidir. Uning natijalari ta'lim sifatini oshirish, pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish hamda ta'lim strategiyalarini ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston sharoitida EGRA joriy etilishi ta'lim tizimining xalqaro standartlarga moslashishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Dubeck M, Gove A. The early grade reading assessment (EGRA): Its theoretical foundation, purpose, and limitations. International Journal of Educational Development, 40, 315–322. Paris, (2015)
2. Umarova G.B. EGRA va EGMA xalqaro baholash dasturlari o'rganilganlik darajasi va mazmun-mohiyati. "Maktabgachga va maktab ta'limi" jurnali, 2025-yil, dekabr, 12-son
3. EGRA dasturi bo'yicha xalqaro qo'llanma (EGRA Toolkit). Global Learning Lab / Edu-Links org.

Date: 15th January-2026

4. G'ayipova G.N. EGRA va EGMA baholashlari asosida o'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirishga qaratilgan pedagogik strategiyalar. in-academy.uz/index.php/yo
5. West J, Kersop E. Teachers' perceptions about the implementation of Early Grade Reading Assessment. *Reading and Writing*, 16(1). (2025) South Africa.
6. Davlatova S. EGRA dasturi asosida o'quvchilarning o'qish savodxonligidagi muammolarni aniqlash va bartaraf etish metodikasi. *Qo'qon Universiteti Xabarnomasi*, 16, (2025)136–139.
7. UNESCO IIEP Learning Portal. Early Grade Reading Assessment (EGRA) (2015). Unesco.

